


F.T. Miraxmedov, A.T. Ibragimov

VOLEYBOL

The background of the cover is a stylized illustration of a volleyball court. It features a blue sky-like background with a brown volleyball net on the right side. Two players are depicted in dynamic poses: one on the left is jumping high with arms outstretched, and another on the right is diving low to the ground. Three volleyball balls are shown: one at the top center, one in the middle near the net, and one at the bottom center. The court floor is marked with orange lines.


CH0000033441

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIMI VAZIRLIGI

F.T. Miraxmedov, A.T. Ibragimov

V O L E Y B O L

(Oliy ta'lim muassasalarining "Jismoniy madaniyat"
yo'nalishi talabalari uchun uslubiy qo'llanma)



Toshkent – 2017

Ushbu metodik qo'llanma sportga oshno bo'lgan talaba-yoshlarga, o'smirlarga va yosh jismoniy tarbiya o'qituvchi-murabbiylar uchun yaratildi. Metodik qo'llanmani o'qib sport o'yinlari tarixi, o'rgatish uslubi, sportchilarning texnik, taktik, jismoniy, ruhiy tayyorgarligi, metodikasi ularning mashg'ulot musobaqa faoliyatini boshqarish, hakamlilik qilish uslubi haqida ma'lumotlarga ega bo'lasiz.

Mazkur metodik qo'llanma keltirilgan ma'lumotlar sportchilarning tayyorgarlik va musobaqa faoliyatlari, texnik va taktik mahoratlarini baholash mezonlari hamda omillari bilan tanishtiradi.

Yaratilgan metodik qo'llanma umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari jismoniy tarbiya o'qituvchilari hamda oliy ta'lim muassasalarining "Jismoniy madaniyat" yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

T. Achilov – Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti

P. Xodjayev – BO'SMXQTUMOM professori

Ushbu metodik qo'llanma Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universitetining O'quv-uslubiy kengashi yig'ilishining 2017 yil 16 noyabrda 4-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

*Har qanday millatning ravnaqi,
umumbashariyat tarixida tutgan
o`rni, mavqei va shuhrati bevosita
o`z farzandlarining aqliy va
jismoniy yetukligiga bog`liqdir.*

***O`zbekiston Respublikasi birinchi
Prezidenti I.A.Karimov***

KIRISH

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so`ng ijtimoiy turmushimizning turli sohalari, xususan jismoniy tarbiya va sport sohasiga ham kata e`tibor qaratildi. Bu borada Respublikamizda «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» (1997), «Sog`lom avlod davlat dasturi» (1999), «Davlat ta`lim standartlari» (1999), «Alpomish» va «Barchinoy» maxsus testlari (2000) hamda “Jismoniy tarbiya va sport to`g`risda”gi Qonun (2015) va O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qator qarorlari qabul qilinishi aholi salomatligini yaxshilash, o`quvchi-yoshlar va talabalarning jismoniy barkamolligini tarbiyalash bilan bevosita bog`liq bo`lgan muhim muammolarni hal etishga qaratilgan.

Sport o`yinlari jismoniy tarbiya va sport tizimida asosiy o`rinni egallaydi. Sport o`yinlari umumta`lim, kasb-hunar va oliy ta`lim muassasalarida fan dasturlariga kiritilgan. Bu borada bolalarni BO`SM va maxsus ixtisoslashtirilgan sport maktab internatlarda katta ishlar olib borilmoqda. Buning natijasini joriy etilgan uch bosqichli tizim «Universiada» sport musobaqalarida yaqqol ko`rish mumkin. Shu sababli bu amalga oshirilayotgan ishlar «Sport va harakatli o`yinlar», «Sport turlaridan hakamlik qilish», «Sport mahoratini oshirish» fanlari bo`yicha pedagogik faoliyatda zarur bo`lgan bilim, ko`nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan.

Metodik qo`llanma mazmuniga sport o`yinlari tarixi, uni o`rgatish metodikasi, sportchilarning texnik, taktik, jismoniy, ruhiy, nazariy

tayyorgarligi metodikasi, ularning mashg'ulot, musobaqa faoliyatini boshqarish, hakamlilik qilish uslubiyoti kabi masalalar kiritilgan.

Metodik qo'llanmani tayyorlashda jismoniy tarbiya va sport trenirovkasi sohasidagi yetakchi mutaxassislar-Yu.V.Veroxshanskiy, M.A.Godik, V.M.Zatsiorskiy, R.S.Salomov, F.A.Kerimov, M.Umarov, A.N.Abdiyev; sport o'yinlari mutaxassislari-L.Ayrapetyans, Sh.I.Pavlov, J.Akramov, F.Abduraxmonov, T.S.Usmonxo'jayev, K.Mahkamjonov, Yu.D.Jeleznyak, Yu.N.Kleshev, O.S.Chexov, B.Ya.Sirik, Yu.S. Lukashin ishlariga tayanildi.

Qo'llanmani shakllantirishda sport o'yinlari bo'yicha zamonaviy darajada yoritilgan ilmiy-metodik ma'lumotlar hamda Internet tarmog'i materiallaridan keng foydalanildi.